

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

## ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

### REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



**Crossref**  
Content  
Registration

# MUNDARIJA

## 12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 5 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**  
Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va uning  
shakllanishiga doir ayrim nazariy masalalar

## 12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**  
Послание Президента страны к народу и  
Олий Мажлису: конституционно-правовой  
анализ
- 26 **YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**  
Oliy ta'lim transformatsiyasi: YUNESKOning  
"Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish  
to'g'risida"gi Global konvensiyasini ratifikatsiya  
qilish zarurati
- 35 **АЛИМУХАМЕДОВ СУХРОБ  
АЙБЕКОВИЧ**  
Децентрализация системы государственного  
управления в унитарных и федеративных  
государствах: сравнительно-правовой анализ
- 49 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK  
ALISHER O'G'LI**  
Soliq maslahati tushunchasining nazariy-huquqiy  
jihatleri

## 12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 58 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ  
РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК  
РУСТАМБЕКОВИЧ**  
Реформирование основ сравнительного  
правоведения в цифровую эру: новые  
принципы и подходы

- 85 **БАЛТАБАЕВА ЖИБЕК БАУЫРЖАНОВНА**  
Улучшение системы взыскания алиментов  
в Казахстане: проблемы и перспективы

- 94 **ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**  
Гражданско-правовые способы защиты  
слабой стороны договора

## 12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 107 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**  
Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar  
shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari  
himoya qilish shakllari sifatida

## 12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 116 **MAXMADIYAROVA XUMORA O'KTAMOVNA**  
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash  
bosqichida taraflar tortishuvini ta'minlash

- 122 **OLIMOV BEKMIRZA TUXTAPULATOVICH**  
Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs  
huquqlarini ta'minlash

## 12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 129 **БАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**  
Правовое регулирование агентской  
деятельности в Республике Узбекистан

## 13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 138 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**  
**TURABAYEVA LAZZAT KALIKULOVNA**  
Ta'limda innovatsion texnologiyalar

- 146 **НИЯЗОВА НАСИБА ЖУРАБЕКОВНА**  
Правовое регулирование статуса языка и  
особенности его использования в различных  
источниках права

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.4./CTQM5589>  
UDC: 343(045)(575.1)

## QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR SHAXS HUQUQ VA ERKINLIKLARINI SUDDAN TASHQARI HIMOYA QILISH SHAKLLARI SIFATIDA

**Choriyev Anvar Qo'ziyevich,**

Buxoro viloyati Kogon shahri IIB mas'ul xodimi

ORCID: 0000-0002-4785-3233

e-mail: a.choriyev@mail.ru

**Annotatsiya.** Huquqni qo'llash amaliyotida va ijtimoiy tarmoqlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayrim kishilarda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun nazarda tutilgan, degan xato tasavvur shakllanganligini ko'rish mumkin. Maqolada muallif mana shu kabi qarashlarning xato ekanini, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, avvalo, shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari himoya qilishning qonuniy shakllari sifatida qonunchilikka kiritilganligini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Bu bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasidan misollar keltiradi. Ularni bir-biri bilan hamda O'zbekiston jinoyat qonunchiligi bilan taqqoslaydi. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar yuzasidan shakllangan huquqiy tartibga solish modellari, ilmiy-nazariy doktrinalarni ochib beradi. Bunda asosiy e'tiborni qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi eng ko'p uchraydigan holatlar: zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish holatlariga qaratadi. Shu bilan birga, mazkur holatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillariga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkinligiga to'xtalib o'tadi. Muallif maqolani xulosalar ekan, xorijiy davlatlar tajribasining aynan qay-si jihatlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish mumkinligi istiqbollarini ham bayon etadi.

**Kalit so'zlar:** shaxs huquq va erkinliklari, o'z-o'zini himoya qilish, suddan tashqari himoya, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, jinoyatchiga zarar yetkazish.

### ОБСТОЯТЕЛЬСТВА, ИСКЛЮЧАЮЩИЕ ПРЕСТУПНОСТЬ ДЕЯНИЯ, КАК ФОРМА ВНЕСУДЕБНОЙ ЗАЩИТЫ ПРАВ И СВОБОД ЛИЧНОСТИ

**Чориев Анвар Кузиевич,**

ответственный сотрудник УВД  
города Каган Бухарской области

**Аннотация.** Если обратиться к практике работы правоохранительных органов и социальных сетей, то можно заметить, что у некоторых людей сложилось ошибочное представление о том, что обстоятельства, исключающие преступность деяния, указанные в Уголовном кодексе Республики Узбекистан, предназначены только для правоохранительных органов. В статье автор пытается показать ошибочность такого мнения, что обстоятельства, исключающие преступность деяния, включены в законодательство как правовые формы внесудебной защиты прав и свобод личности. Он приводит примеры из опыта зарубежных стран. Сравнивает их между собой и с уголовным законодательством Узбекистана. Научно-теоретические учения раскрывают модели правового регулирования, сформированные

на основе обстоятельств, исключающих преступность деяния. При этом основное внимание уделяется наиболее распространённым случаям, исключающим преступность деяния: необходимой обороне, крайней необходимости, а также причинению вреда при задержании лица, совершившего общественно опасное деяние. При этом отмечается, что данные случаи могут быть применены и к представителям правоохранительных органов. В завершение статьи автор обозначил перспективы того, какие аспекты из опыта зарубежных стран могут быть имплементированы в отечественное законодательство.

**Ключевые слова:** права и свободы человека, самооборона, внесудебная защита, необходимая оборона, крайняя необходимость, причинение вреда преступнику.

## CRIME EXCLUSIONS CASES AS A FORM OF EXTRAJUDICIAL PROTECTION OF PERSONAL RIGHTS AND FREEDOMS

**Choriev Anvar Kuzievich**

Executive officer of the Internal Affairs Department  
of Kogon city, Bukhara region

**Abstract.** If we look at the practice of law enforcement agencies and social networks, we can see that some people have a misconception that the circumstances precluding the criminality of an act, specified in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, are intended only for law enforcement agencies. In the article, the author tries to show the fallacy of such views that circumstances precluding the criminality of an act are included in the legislation as legal forms of extrajudicial protection of individual rights and freedoms. He gives examples from the experience of foreign countries. He compares them with each other and with the criminal legislation of Uzbekistan. Models of legal regulation, formed on the basis of circumstances excluding the criminality of a crime, reveal scientific and theoretical teachings. At that point, the main attention is focused on the most common cases, excluding criminality of a deed: necessary defense, extreme necessity, and cases of infliction of harm during the detention of a person who committed a socially dangerous act. At the same time, it is noted that these cases can be applied to representatives of law enforcement agencies. Concluding the article, the author did not fail to outline the prospects of what aspects of the experience of foreign countries can be implemented in national legislation.

**Keywords:** human rights and freedoms, self-defense, extrajudicial protection, necessary defense, extreme necessity, causing harm to a criminal.

### Kirish

Shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish huquq va huquqni qo'llash amaliyotining markaziy va eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu himoyaning davlat tomonidan ta'minlanishining tabiati davlatning huquqiy rivojlanish darajasini ko'rsatadi va uning dunyodagi sivilizatsiya ko'rinishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi O'zbekistonni demokratik, huquqiy davlat deya e'lon qildi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 20-moddasi-

da insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga, obyektiv sabablarga ko'ra davlat organlari har bir fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya etilayotganini doimiy kuzatib borish imkoniyatiga ega emas. Aynan shu sababli davlat fuqarolarga o'zlarining huquq va erkinliklarini qonun doirasida himoya qilish, turli g'ayriqonuniy holatlar, shu jumladan, tajovuzlardan o'zini o'zi himoyalash huquqlarini taqdim etgan, deyish mumkin.

Bunday holatda ular sodir etgan qilmish ijtimoiy xavfli emas, balki ijtimoiy foydali

(masalan, jinoiy xatti-harakatlarni to'xtatish) bo'lganligi sababli jinoyat qonunchiligida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar belgilangan. Jinoyat kodeksining alohida bo'limi shu kabi masalalarga bag'ishlangan.

Albatta, bu boradagi xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi tajribasini o'rganmasdan, uning ijobiy tomonlarini aniqlamasdan va uni huquqiy jihatdan jalb qilish masalasini ko'rib chiqmasdan turib, milliy qonunchilikni takomillashtirish mumkin emas. Ushbu holat bizni O'zbekiston jinoyat qonunchiligining shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishning suddan tashqari shakllari sifatida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarni tartibga soluvchi qoidalarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni izlashga undadi.

#### **Material va metodlar**

Xorijiy davlatlarning jinoyat huquqida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning aks ettirilishi davlat qaysi huquqiy oilaga mansubligi bilan bog'liq [1, 600-b.]. Shuning uchun biz turli huquqiy oilalarga mansub ayrim davlatlarning jinoyat huquqi manbalarida ushbu shakllarning birlashtirishini o'rganib chiqdik: romano-german (Germaniya, Ispaniya, Latviya, Litva, Shveysariya, Fransiya), postsotsialistik (Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi) va anglo-sakson (Angliya, AQSh [2, 22-b.]).

Mavzuga doir masalalarni tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy usullaridan foydalanildi.

#### **Tadqiqot natijalari**

Davlat va huquq nazariyasi shunday nuqtayi nazarga amal qiladiki, unga ko'ra romano-german huquq oilasi normativ umumlashmalarning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Bunda kodifikatsiyalangan qonun hujjatlari ustuvorlik qiladi. Ular aniq bir holat bo'yicha ishni hal qilishga qaratilgan bo'lmaydi, balki mavhum va umumiy holatlar bo'yicha masalalarni hal qilish uchun umumiy ko'rsatmalar yaratishda ifodalanadi [3, 366-b.]. Shu sababli shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari himoya qilish

shakllarining qonuniyligi, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi shartlar har doim ham ushbu mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida aniq tartibga solinmaydi.

Anglo-sakson huquq oilasiga mansub davlatlarda esa sud qarorlari avvaldan shakllangan sud an'anasiga muvofiq qabul qilinishi, qonunlardan tashqari sudyaning keng diskretsion vakolatlarga egaligi sababli har bir sodir etilgan holatga individual yondashgan holda qaror qabul qilish imkoniyati mavjud.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Ko'rib chiqilayotgan shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari himoya qilish shakllari orasida Fransiya Jinoyat kodeksi faqat zaruriy mudofaa (122-5, 122-6-moddalar) va o'ta zarurat (122-7-modda)ni tartibga solib, ularni jinoiy javobgarlik yuzaga kelmasligi yoki uni yengillashtirish uchun asos sifatida tan oladi. Ushbu kodeksga ko'ra, fransuz qonun chiqaruvchisi tomonidan "qonuniy himoya: deb ataladigan zaruriy mudofaa himoyachini yoki boshqa shaxslarni har qanday hujumdan (ham jinoyat, ham jinoiy huquqbuzarlik) himoya qilishga qaratilgan va uning og'irligi darajasiga mos kelishi kerak. 122-6-modda zarur himoya-ning ikkita qonuniy holatini ko'rsatadi: tungi vaqtda uyga bostirib kirish, zo'ravonlik yoki aldash yo'li bilan uy-joyga kirishni qaytarish; zo'ravonlik qo'llash bilan amalga oshirilgan o'g'rilik yoki talonchilikdan himoya qilishni ta'minlash.

Fransiya Jinoyat kodeksida zaruriy mudofaaning me'yoriy chegaralaridan oshib ketish belgilari ko'rsatilgan bo'lib, u baholash xarakteriga ega – bu mudofaa vositalari va jinoyatning og'irligi o'rtasidagi aniq nomuvofqlikdan iborat bo'lishida ifodalanadigan zaruriy mudofaa chegaralaridan chetga chiqishdir. Shu bilan birga, Fransiya Jinoyat kodeksida O'zbekiston jinoyat qonunida bo'lgani kabi ko'rib chiqilayotgan himoya turining me'yoriy chegaralaridan chetga chiqishi oqlangan holatlarning hech qanday belgisi mavjud emas.



Fransiya Jinoyat kodeksi har qanday shaxsga o'sha shaxsning o'ziga, boshqa shaxslarga, shuningdek, mol-mulkka tahdid soladigan xavfni bartaraf etish uchun oxirgi zarurat huquqini beradi. Bunda ma'lum bir sharoitda har qanday harakatni amalga oshirish kerak bo'lgan xavf mavjud yoki sodir etilishga yaqin bo'lishi kerak. Oxirgi zaruratning me'yoriy chegaralaridan oshib ketish baholash xarakteriga ega bo'lib, qo'llanadigan himoya vositalari va tahdidning jiddiyligi o'rtasidagi aniq nomuvofiqlikdan iborat.

Ko'rib chiqilayotgan shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari himoya qilish shakllari orasida Germaniya Jinoyat kodeksi xuddi Fransiya Jinoyat kodeksi kabi faqat zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratni tartibga soladi (ularga maxsus 4-bob bag'ishlangan), ular tegishincha "majburiy mudofaa" (§ 32 va 33) va "majburiy vaziyat" (§ 34 va 35) deb ataladi. Germaniyada ushbu mudofaa huquqi davlat hududida joylashgan har qanday shaxsga beriladi. U hujum boshlangan, lekin hali tugamagan vaziyatda, shuningdek, himoyachiga ham, boshqa shaxsga ham qilingan hujumda amalga oshirilishi mumkin. Chalkashlik, qo'rquv yoki tahdid tufayli sodir etilgan harakatlar majburiy himoyaning me'yoriy chegaralaridan oshmaydi. Germaniya Jinoyat kodeksida hujumning tabiati va xavflilik darajasi bo'yicha himoyaning me'yoriy chegaralaridan chetga chiqish deb topilish shartlari mavjud emas.

Germaniya Jinoyat kodeksiga ko'ra, har qanday shaxs majburiy vaziyatda xavfni bartaraf etish huquqiga ega, ammo bu xavf mavjud va muqarrar bo'lishi kerak. Kodeksda xavf shaxs tomonidan mustaqil ravishda bartaraf etilishi mumkin bo'lgan imtiyozlar aniq ko'rsatilgan. Zarar obyektlari odamlar ham, hayvonlar ham bo'lishi mumkin va yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan sezilarli darajada farq qilmasligi kerak. Subyektiv (psixologik) xususiyatlarga ega bo'lgan bir qator hollarda ushbu qoidaning me'yoriy chegaralaridan oshib ketish oqlanadi. Bu kabi holat-

larga qarindoshi yoki yaqiniga nisbatan xavfni bartaraf etish, shuningdek, yuzaga kelgan xavfning mohiyatini to'g'ri tushuna olmaslik kiradi.

Germaniya Jinoyat kodeksi majburiy vaziyatlarni ikki turga ajratadi: qonuniy (§ 34) va asosli (§ 35). Qonuniy majburiy vaziyat jinoiy javobgarlikni bartaraf etadigan shartlarni o'z ichiga oladi. Asosli holat esa uni istisno qilmaydi, lekin sanab o'tilgan "uzrli" holatlar tufayli u jazoni yengillashtirishga ta'sir qiladi. Ikkinchi holatda ushbu kafolat tajovuz qilingan mulkka nisbatan qo'llanmaydi.

Germaniya Jinoyat kodeksining majburiy mudofaa va majburiy vaziyatlar to'g'risidagi qoidalarining o'ziga xos xususiyati ushbu qoidalarda 1950-yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (yoki Inson huquqlari Yevropa konvensiyasi)ning 2-moddasi 2-bandiga havola mavjudligidir. Konvensiyaning ushbu holatlarni xalqaro huquq nuqtayi nazaridan qo'llash qonuniylik shartlarini tushuntiradi. Bular – noqonuniy zo'rvonlikdan himoya qilish; shaxsni qonuniy hibsga olish yoki qonuniy qamoqqa olingan shaxsning qochishiga yo'l qo'ymaslik; g'alayon yoki qo'zg'olonni qonuniy ravishda bostirish hisoblanadi.

Ispaniya Jinoyat kodeksida zaruriy mudofaa "himoya", oxirgi zarurat esa "zarurat" deb ataladi. Ushbu holatlarga muvofiq, harakatlar shaxs va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, shuningdek, mulkni himoya qilgan holda qilingan bo'lishi mumkin.

Ispaniya jinoyat qonuni ushbu holatlarga yo'l qo'yish shartlarini aniqlab beradi va batafsil bayon qiladi: hujumning noqonuniyligi, himoya choralarining oqilona zarurati va himoyachi tomonidan provokatsiyaning yo'qligi. Fransiya Jinoyat kodeksi singari, Ispaniya Jinoyat kodeksi ham bartaraf etib bo'lmaydigan faktik va huquqiy xato ta'sirida sodir etilgan xayoliy mudofaa holatida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni belgilaydi (14-modda).

Bolتيqbo'yi mamlakatlari (masalan, Latviya va Litva) jinoyat qonunlari zaruriy mudo-

faa va oxirgi zaruratdan tashqari jinoyat sodir etgan shaxsni hibsga olish paytida unga nisbatan zararli harakatlarni amalga oshirishni ham tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan farqli o'laroq, ular bu holatlarni "qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar" emas, balki "jinoiy javobgarlikni istisno qiladigan holatlar" deb atashadi.

Latviya Respublikasi Jinoyat kodeksida xayoliy mudofaa shartlarini ochib beruvchi alohida qoida (30-modda) mavjud bo'lib, unga ko'ra quyidagi hollarda amalga oshirilgan xatti-harakatlar xayoliy mudofaa hisoblanadi:

1) haqiqiy hujum bo'lmagan, lekin shaxs xato tufayli shunday deb taxmin qilgan;

2) hodisaning holatlari haqiqiy hujum sodir etilmoqda, degan noto'g'ri taxmin qilish uchun asos bo'lgan, lekin ayni paytda o'zini himoya qiluvchi shaxs buni anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan. Shunga ko'ra Latviya qonun chiqaruvchisi xayoliy himoya holatidagi harakatlarni ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan jinoyatga tenglashtiradi.

Shvetsiya Jinoyat kodeksining 24-bobida zaruriy mudofaa (uni o'z-o'zini mudofaa qilish deb atashadi), jinoyat sodir etgan shaxsni ushlashda zarar yetkazish va oxirgi zarurat (uni zarurat deb atashadi) tartibga solinadi. Shvetsiya jinoyat qonunchiligida ko'rib chiqilayotgan shakllarni huquqiy tartibga solishning progressiv va qiziqarli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– har bir shaxs o'zini himoya qilish huquqiga ega ekanligi belgilangan va u nafaqat shaxsning shaxsiy huquq va erkinliklarini, boshqa shaxslarning erkinliklari, shuningdek, mulkiy huquqlarni himoya qilishda ham paydo bo'ladi;

– har kim tomonidan subyektiv baholanihini istisno qilish uchun o'zini himoya qilishning qonuniyligi shartlarining eng aniq bayoni ko'rsatib o'tilgan;

– ushlash vaqtida zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan ikki toifadagi shaxslarning ajratib ko'rsatilishi: 1) qamoqdagi, ushlab turilgan

yoki hibsdagi bo'lgan yoki boshqa yo'l bilan ozodlikdan mahrum qilingan va qochib ketgan mahkumlar yoki kuch bilan yoki kuch bilan qarshilik ko'rsatish tahdidi orqali yoki u bo'ysunadigan shaxsga boshqacha tarzda qarshilik ko'rsatish; 2) qarshilik ko'rsatgan boshqa shaxslar.

Shveysariya Jinoyat kodeksi sudyaga o'z xohishiga ko'ra zaruriy mudofaaning me'yoriy chegaralaridan oshib ketganligi uchun jazoni yengillashtirishga imkon beradi (33-modda). U, shuningdek, oxirgi zarurat haqida ishlarni ko'rib chiqishda, agar xavf uni bartaraf etuvchi shaxs tomonidan aybli ravishda yaratilgan bo'lsa yoki ishning holatlariga ko'ra xavf ostida bo'lgan foydani qurbon qilish maqsadga muvofiq bo'lsa, ushbu huquqqa ega hisoblanadi (34-modda).

Fransiya, Germaniya, Shvetsiya va Shveysariya jinoyat kodekslarida qo'rquv, hayajon yoki chalkashlik tufayli zaruriy mudofaa chegaralaridan chetga chiqish jinoyat deb tan olinmasligi to'g'risidagi qoidalar ushbu tadqiqot uchun ilmiy qiziqish uyg'otadi [4, 22-b.]. Romano-german huquqiy oilasining postsotsialistik tarmog'iga kiruvchi mamlakatlarning jinoiy qonunlarida shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishning ko'rib chiqilayotgan shakllarini huquqiy tartibga solish deyarli bir xil va O'zbekiston qonunchiligidan farq qilmaydi. Shu bilan birga, ilmiy qiziqish uyg'otadigan bir qator xususiyatlarga e'tibor qaratamiz.

Masalan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksida bu shakllar alohida bobda ajratilmagan va "Jinoyat" II bo'limiga kiritilgan [5]. Zaruriy mudofaa huquqi nafaqat himoyachining yoki boshqa shaxslarning shaxsiy va boshqa huquqlarini, jamiyat yoki davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ijtimoiy xavfli tajovuzdan, balki uy-joyni, mulkini, shuningdek, yer uchastkasini ham himoya qilishda vujudga keladi. Qozog'iston qonun chiqaruvchisi tajovuzkorga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararning xususiyatini ko'rsatib, ushbu himoyaning me'yoriy chegaralaridan



oshib ketganligini belgilab bergan: “Vaziyat tufayli yetkazilmagan, aniq ortiqcha zarar” (Qozog‘iston Respublikasi JK 32-moddaning 2-qismi).

Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat sodir etgan shaxsni hibsga olishda zarar yetkazish shartlari ko‘rsatilgan, bu faqat tergovdan va suddan yashirinishga uringan taqdirdagina mumkin (35-moddaning 1-qismi). Agar yaqinlashib kelayotgan xavfni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilgan harakatlar o‘z maqsadiga erishmasa va zarar shaxsning uning oldini olishga vijdonan urinishlariga qaramay yuzaga kelgan bo‘lsa ham, oxirgi zarurat holati deb tan olinadi (36-moddaning 2-qismi) [6].

Belarus va Qozog‘iston jinoyat kodekslarida jinoyat sodir etgan shaxsga zarar yetkazish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi aniqlangan: “...maxsus vakolatli shaxslar, jabrlanuvchilar va boshqa fuqarolar” [7, 150-b.].

Anglo-sakson huquq oilasining huquq manbalari sudyalari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar bo‘lib, huquqiy tartibga solish yuridik amaliyotga (sud pretsedentlari) asoslanadi. Davlat va huquq fanlari sohasidagi olimlar haqli ravishda ta’kidlaganidek, bu yondashuv huquq normalarini romano-german huquq oilasining huquq qoidalari qaranganda ancha moslashuvchan va mavhumroq qiladi.

Davlat va huquq nazariyasi anglo-sakson huquq oilasini ikki guruhga ajratadi: ingliz huquqi va AQSh huquqi [3, 367-368-b.], ular asosan bir xil, chunki ikkinchisi birinchisidan olingan va uning asosiy qoida, mezonlari asosida ishlab chiqilgan.

Ingliz jinoyat huquqi shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishning uchta shaklini belgilab beradi, bu esa qilmishning jinoiyligini istisno qiladi: oxirgi zarurat, zaruriy mudofaa va jinoyatchilar yoki gumonlanuvchilarni qonuniy hibsga olish. Ularning barchasi jinoiy javobgarlikni istisno etuvchi holatlar guruhiga kiritilgan.

Oxirgi zarurat holatidagi harakatlar shaxs yoki mulkka zarar yetkazishdan himoya qilish

uchun himoyaga boshqa imkoniyatlar bo‘lmasa, sodir etilishi mumkin. Bunda jinoiy-huquqiy himoya obyektlariga katta zarar yetkazmaslikka yo‘l qo‘yiladi. Buyuk Britaniyada bo‘lgan har qanday shaxs zaruriy mudofaa va jinoyatchilar yoki gumonlanuvchilarni qonuniy hibsga olish huquqiga ega. Bunday hollarda qonun chiqaruvchi faqat “oqilona kuch” ishlatishga ruxsat beradi. Huquqbuzarlarni ma’lum bir davlat hududida ushlash amaliyotining samaradorligini ta’minlash uchun har qanday shaxsga politsiyaga qonuniy hibsga olishda yordam berishga ruxsat beriladi [8, 39-b.].

Zaruriy mudofaa AQSH norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotida shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, qilmishning jinoiyligini istisno qiladi. Aksariyat shtatlarda u odatda uch turga bo‘linadi: o‘zini o‘zi himoya qilish, boshqa shaxsni himoya qilish va mulkni, shu jumladan, uyni himoya qilish.

Amerikalik qonun chiqaruvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organ uchun muhim savol hujumdan himoyalashda qanday kuch ishlatish mumkinligi hisoblanadi. Amaldagi kuch xavf ostida bo‘lgan zararining oldini olish va unga mutanosib bo‘lishi uchun oqilona zaruriyat deb hisoblanishi kerak.

Qo‘shma Shtatlarda subyektiv (psixologik) mezon – oqilona ishonch deb ataladigan narsaga asoslangan zaruriy mudofaa huquqining paydo bo‘lishi ushbu tadqiqot uchun qiziqish uyg‘otadi. Bunda qonun chiqaruvchi voqelikni subyektiv idrok etishiga asoslanib, aniq bir shaxsning emas, balki umuman aqli shaxsning kuch ishlatish zarurligiga ishonchini bildiradi. Ushbu mudofaa huquqiga ega bo‘lish uchun o‘zini himoya qilayotgan shaxs noqonuniy zo‘ravonlikning deyarli sodir bo‘lishiga asosli ravishda ishonishi kerak, ya’ni hujum tahdidi to‘liq ongli va darhol bo‘lishi kerak.

Ba’zi shtatlarning qonunchiligi (masalan, Texas) o‘limga olib keladigan yoki badanga

og'ir shikast yetkazish taassurotiga javoban halokatli kuch ishlatishni oqlamasdan, faqat harakat (harakatsizlik)ga qarshi zaruriy mudofaaga yo'l qo'yilishini nazarda tutadi (Texas shtati Jinoyat kodeksining 9.04-moddasi [9, 66-b.]).

Fuqarolarning ularga qarshi sodir etilgan hujumlarga mustaqil munosabatini tavsiflash va bunday hujumlarga qarshi himoya harakatlarining me'yoriy chegaralarini belgilashda AQSh jinoyat huquqi manbalarida "o'limga olib kelmaydigan kuch" va "o'limga olib keladigan kuch" toifalari qo'llanadi. Bunda agar shaxs badanga noqonuniy zarar yetkazishning ishonchli tahdidi mavjudligiga asosli ishonsa, u o'zini himoya qilish uchun "o'limga olib kelmaydigan" (oddiy) kuchni qonuniy ravishda qo'llashi mumkin. Qonun chiqaruvchi va huquqni qo'llovchi agar hujumga uchragan shaxs "o'limga olib kelmaydigan" jismoniy kuch ishlatish niyatida bo'lib, uni xavfsiz tarzda amalga oshirishi mumkin bo'lsagina chekinmasligi (qochib ketmasligi) kerakligiga ishonch hosil qiladi. "O'limga olib keladigan" kuch deganda odatda o'lim yoki badanga og'ir shikast yetkazish maqsadida qo'llanadigan kuch tushuniladi. Shaxs qonunga xilof ravishda o'lim yoki og'ir tan jarohati olish xavfi mavjudligiga asosli ishonsagina ushbu kuchdan qonuniy ravishda foydalaniishi mumkin. "O'limga olib keladigan" kuch ishlatishga AQShning ko'plab shtatlari jinoyat kodekslari ruxsat beradi, lekin undan foydalanish qat'iy ravishda shaxsga qarshi ma'lum bir qurolli jinoyatlarni sodir etish bilan cheklanadi (masalan, odam o'g'irlash, zo'rlash va boshqalar) [10, 640-b.]. Biroq ba'zi shtatlar har qanday zo'ravonlik jinoyatiga qarshilik ko'rsatish uchun "o'limga olib keladigan" kuch ishlatishga ruxsat beradi.

Amerika jinoyat huquqi doktrinasi va huquqiy amaliyotida o'zini himoya qiluvchi shaxsning harakatlari qonuniyligini ko'rib chiqishda, birinchi navbatda, quyidagi holatlar tahlil qilinadi: hujum natijasida kuch ishlatish zarurati; shaxs ushbu kuchdan foydala-

nishga asosli ishonchga ekanligi; hujumning bevositaligi va haqiqiyliigi [11, 215-b.].

Amerikaning bu sohada dunyoda o'xshashi bo'lmagan norma ijodkorligining o'ziga xos xususiyati shundaki, qonun chiqaruvchi tajovuzkorga ham o'zini himoya qilish huquqini beradi, lekin faqat ikkita holatda: u xavfli bo'lmagan vositalardan foydalanagan, masalan, faqat mushtlardan foydalanagan bo'lsa-yu, bunga javoban unga qarshi "o'limga olib keladigan" kuch ishlatilsa; u ixtiyoriy tarzda o'z hujumini mutlaqo to'xtatib, buni o'z hujumi qurboniga tushuntirsa-yu, lekin u noqonuniy jismoniy kuch ishlatib, tajovuzkorga qarshi hujumga o'tsa.

Ba'zi shtatlarning jinoyat kodekslari, masalan, noqonuniy hibsga olingan taqdirda, politsiya xodimlarining harakatlaridan o'zini o'zi himoya qilishga ruxsat beradi [12, 154-b.].

D.M. Vasin ta'kidlaganidek, AQSh jinoyat qonunchiligining deyarli barcha manbalari uyni himoya qilishda o'limga olib keluvchi kuch ishlatishga ruxsat beradi. Bunday holda, uyga kirish usuli va tajovuzkorlarning soni zaruriy mudofaa huquqini tan olish uchun yuridik ahamiyatga ega emas [13, 19-b.].

Qo'shma Shtatlarda qal'a doktrinasi (castle doctrine) deb ataladigan asosda uyga hujumdan zaruriy mudofaani tartibga solish ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Keltirilgan doktrinaga ko'ra zaruriy mudofaaning qonuniyligi uchun shartlarning uchta guruhi (darajalari) ajratiladi: 1) zaif – uyni tark etish talabi bajarilmaydi, lekin uyga bostirib kirishning oldini olish uchun hayotdan mahrum qilish zarur (Aydaho, Nyu York, Janubiy Dakota va boshqalar); 2) o'rtacha – bunda chekinish va uydin yoki boshqa binolardan chiqib ketish talabini bildirish talab etilmaydi va unga noqonuniy kirgan shaxsga zarar yetkazilishiga yo'l qo'yiladi (Illinoys, Kolorado, Ogayo shtatlari va boshqalar); 3) kuchli ifodalangan – bunda himoyachi qayerda bo'lishidan qat'i nazar, undan tajovuzkorni ogohlantirish talab qilinmaydi (Alabama, Florida, Luiziana va boshqalar) [14, 67-b.].

AQShning bir qator shtatlarida (masalan, Luiziana shtatida) zaruriy mudofaa sifatida uyni himoya qilish huquqi transport vositalariga ham taalluqlidir [15, 285-b.].

### Xulosa

Shaxsning huquq va erkinliklarini suddan tashqari himoya qilish shakllari sifatida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarni xorijiy huquqiy tartibga solishning eng ijobiy va konstruktiv xususiyatlari ilmiy e'tibor talab qiladi va milliy jinoyat huquqi hamda huquqiy amaliyotda ularning implementatsiya masalasini ko'rib chiqishga loyiqdir. Xususan:

- jinoyat sodir etgan shaxsni ushlab turish vaqtida zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish huquqining paydo bo'lishi shartlari va ulardan oshib ketish asoslari;
- ushbu holatlarning qonuniyligini aniqlashda sodir bo'layotgan vaziyatni hisobga olish;

– shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadigan yoki ozod qilinmasa-da jazoning yengillashtirilishiga ishonishi mumkin bo'lgan imtiyozli shartlarni ko'rsatish;

– oxirgi zarurat doirasida sodir etilgan harakatlar uchun faqat yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan ko'ra ko'proq zarar keltirgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortish;

– zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat holatlarida huquqiy va faktik xatolarni tartibga solish;

– ushbu shakllarni amalga oshirishda qurollardan foydalanish shartlarini huquqiy tartibga solish;

– zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat doirasidagi harakatlarni sodir etishga provokatsiya qilganlik uchun javobgarlikka tortish;

– tajovuzkor shaxsga zaruriy mudofaa huquqini taqdim qilish.

## REFERENCES

1. Maleshina A.V. Osobennosti ugolovno-pravovyykh sistem stran obshhego prava [Features of the criminal legal systems of common law countries]. *Current Problems of Russian Law*, 2008, no. 3 (8), pp. 595–602.
2. Nikiforov B.S. Primernyy yugolovnyy kodeks (SShA): ofitsial'nyy proekt Instituta amerikanskogo prava [Model penal code: The American Law Institute Proposed Official Draft]. Moscow, Progress Publ., 1969, 303 p.
3. Boshno S.V. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. 3rd ed. Moscow, Yustitsiya Publ., .2016, p. 406.
4. Pobegaylo E.F. O predelakh neobhodimoy oborony [On the limits of necessary defense]. *Criminal Law*, 2008, no. 2, pp. 21–24.
5. Criminal Code of the Republic of Kazakhstan. Available et: [https://online.zakon.kz/document/?doc\\_id=31575252&show\\_di=1](https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575252&show_di=1)
6. Criminal Code of the Republic of Belarus. Available et: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>
7. Smirnov A.M. Zarubezhnyy opyt pravovoy reglamentatsii vnesudebnykh form zashchity prav i svobod lichnosti, isklyuchayushhih prestupnost' deyaniya [Foreign experience in legal regulation of extrajudicial forms of protection of individual rights and freedoms that exclude

criminality of an act]. *Bulletin of St. Petersburg University, Law*, 2021 no. 1, pp. 144–154. DOI: 10.21638/spbu14.2021.110

8. Kuznetsova N.F. Prestupleniye i nakazaniye v Anglii, SShA, Frantsii, FRG, Yaponii. Obshhaya chast' ugovnogo prava [Crime and punishment in England, USA, France, Germany, Japan. General part of criminal law]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1991, p. 288.

9. Texas Penal Code. St. Petersburg, Legal Center Press, Yuridicheskiy tsentr Press Publ., 2016, p. 576.

10. Oleson K.C., Darley J.M. Community perceptions of allowable counterforce in self-defense and defense of property. *Law and Human Behavior*, 1999, vol. 23 (6), pp. 629–651.

11. Robinson P.H. Criminal Law Defenses: A Systematic Analysis. *Columbia Law Review*, 1982, no. 82, pp. 199–211.

12. Kozochkin I.D. Ugolovnoye pravo zarubezhnykh gosudarstv. Obshhaya chast' [Criminal law of foreign countries. A common part]. Moscow, Omega-L, Institute of International Law and Economics named after A.S. Griboyedov Publ., 2003, pp. 153–155.

13. Vasin D.M. Neobhodimaya oborona kak obstoyatel'stvo, isklyuchayushheye prestupnost' deyaniya: mesto i rol' v ugovno-pravovom regulirovanii. PhD thesis, Ural State Law Academy, 2013, p. 26.

14. Savin P.T. Neobhodimaya oborona na makrourovne kak osnova samoopredeleniya natsiy [Necessary defense at the macro level as the basis for self-determination of nations]. Current Problems of Modern Legislation. Moscow, *Moscow Financial and Legal Academy*, 2014, p. 320.

15. Livingston E. System of Penal Law for the State of Louisian. Miami, Hard Press Publ., 2013, p. 285.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2023-yil 4-son**

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
professor

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,  
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga  
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli 17,67 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 127.  
TDYU tipografiyasida chop etildi.